



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING INTELLEKTUAL VA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18477681>

Inamova Maxliyo Ayubjonovna

Guliston Davlat Pedagogika Instituti magistranti.

E-mail: Ikromovjasur40@gmail.com

Telefon raqami: +99891 623 32 72

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari yoritilgan. Interaktiv metodlar, innovatsion yondashuvlar hamda pedagog kompetensiyasining ta'lim samaradorligiga ta'siri tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim, intellektual rivojlanish, ijodiy qobiliyatlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar, innovatsion yondashuvlar, pedagog kompetensiyasi, ta'lim samaradorligi.*

Аннотация: *В статье раскрываются вопросы применения современных педагогических и цифровых технологий в процессе развития интеллектуальных и творческих способностей детей дошкольного возраста. Рассматривается эффективность интерактивных методов обучения.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, интеллектуальное развитие, творческие способности, современные педагогические технологии, цифровые технологии, интерактивные методы, инновационные подходы, педагогическая компетентность.*

Annotation: *This article explores the use of modern pedagogical and digital technologies in the development of intellectual and creative abilities of preschool children. The effectiveness of interactive teaching methods is analyzed.*

Key words: *preschool education, intellectual development, creative abilities, modern pedagogical technologies, digital technologies, interactive methods, innovative approaches, pedagogical competence, educational effectiveness.*

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish jarayoni barcha ta'lim bosqichlarini qamrab olmoqda. Ayniqsa, maktabgacha

ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Chunki maktabgacha yosh davri bolaning



intellektual salohiyati, ijtimoiy faolligi va ijodiy tafakkuri shakllanadigan eng muhim bosqich hisoblanadi. Mazkur bosqichda qo'llaniladigan pedagogik yondashuvlar bolaning keyingi ta'lim faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

INTELLEKTUAL RIVOJLANISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI:

Psixologik tadqiqotlarga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalarda idrok, xotira, tafakkur va tasavvur jarayonlari jadal rivojlanadi. Intellektual rivojlanish bolaning bilish faoliyatida namoyon bo'lib, muammoli vaziyatlarni hal etish, sabab-oqibat bog'liqliklarini anglash va mantiqiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Zamonaviy texnologiyalar ushbu jarayonlarni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zining kelib chiqish yo'nalish va mazmuniga ko'ra ijtimoiy voqelik hisoblanadi. Unda maqsadning mavjudligi, sabablar, amalga oshirish vositalarining rejali harakatlari, natijaning mavjudligi uning o'ziga xosligidir. Bolalarning turli texnologiyalardan foydalangan holda mashg'ulotlarda ishtirok etishi psixik bilish jarayoni, irodasi, hissiyoti, ehtiyoji va qiziqishlari ta'sirchanligi uning butun shaxsiyatini shakllantiradi. Faoliyat tizimida asosiy ijodkorlik komponent sifatida bola tafakkurida hayotiy vaziyatlarning mavjud bo'lishi kattalarning ijtimoiy hayoti namunasi ko'z oldida gavdalanishi aks ettiriladi.

IJODIY QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING

PEDAGOGIK OMILLARI: Ijodiy qobiliyat bolaning yangicha fikrlashi, noodatiy yechimlar topishi va tasavvurini erkin ifoda etishi bilan tavsiflanadi. Pedagogik jarayonda ijodiy muhit yaratish, bolani mustaqil fikrlashga undash va uning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ushbu vazifalarni samarali amalga oshirish imkonini beradi.

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING MAKTABGACHA TA'LIMDAGI IMKONIYATLARI

Zamonaviy texnologiyalar tarkibiga interaktiv doskalar, multimedia vositalari, raqamli o'yinlar va ta'limiy platformalar kiradi. Ushbu vositalar ta'lim jarayonini vizual, qiziqarli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Texnologiyalar yordamida bolalarda mustaqil o'rganish, izlanish va ijodiy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni beqiyos. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat markazlarida ta'lim jarayonlarini tashkil etishda turli xildagi an'anaviy metodlar bilan zamonaviy noan'anaviy texnologiyalarning uyg'unligi natijasida tahsil olganlarida ularning intellekti va ijodkorlik qobiliyatlari ijobiy darajada rivojlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida STEAM texnologiyasi



asosida mashg'ulotlarning olib borilishi bolalarda har tomonlama rivojlanaishiga hissa qo'shadi.

STEAM-istiqbolli texnologiya hisoblanib bir necha sohalarning bir nuqtada birlashishiga sabab bo'ldi.

S-science-tabiiy fanlar

T-technology-texnologiya

E- engineering- muhandislik

A-art-san'at

M-math-matematika

Bugungi kunda STEAM texnologiyasida maqsadli tarzda turli sohalarda foydalanilmoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bu texnologiyaning o'rnini beqiyosdir. Bu metod nazariya va amaliyotni birga olib borish imkonini beradi. Bundan tashkari STEAM texnologiyasi bolalarda bilimlardan unumli foydalanish, mustaqil muvaffaqiyatga erishish, zamonaviy kommunikatsiyadan foydalanish, fikrlarni erkin bayon etish, mustaqil harakat qilish imkoniyatlarni yaratadi.

PEDAGOG KOMPETENSIYASI VA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Pedagogik kompetensiya – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma malakalarning egallanishi va uni amalda qo'llay olish qobiliyatidir.

Pedagogik kompetentlik quyidagi hollarda namoyon bo'ladi.

-murakkab jarayonlarda ;

-noaniq vazifalarni bajarganda;

-bir biriga zid bo'lgan ma'lumotlardan foydalanganda;

-kutilmagan vaziyatlarda turli harakat rejasini bajarishda.

Pedagogning kasbiy kompetensiyasi zamonaviy texnologiyalarni samarali qo'llashda muhim omil hisoblanadi. Pedagog texnologik vositalarni tanlash, ularni didaktik maqsadlarga moslashtirish va bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llay olishi zarur.

STEAM texnologiyasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun xizmat qiluvchi yangi texnologiya hisoblanadi.

STEAM dasturi bolalarning nazariy bilimlarga asosan amaliy bajarish asosan amaliy qolilyatlarga e'tibor berishga qaratilib ijodkorlikni, moslashuvchanlikni, ixtirochilikni rivojlantiradi.

STEAM - texnologiyasining muhim afzallik tomonlari mavjud.

1. Faoliyatlarni olib borish jarayonida integratsiya jarayonini shakllantirib borish;

2. Ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash

3. Tanqidiy va mantiqiy fikrlarni ko'nikmalarni rivojlantirish;

4. O'z kuchiga ishonish hissining ortishi

5. Faol kommunikatsiya va jamoada ishlash

6. Muloqot davrida o'z fikrini erkin bayon eta olish;

7. Loyihalarga kreativ va innovatsion yondashuv

8. Muhokama, dizayn, qurish, vazifalarni



9. Ta'lim va karera ortasidagi ko'prik

10. Bolalarning jarayonda faol qatnashishlarini ta'minlashdan iborat.

STEAM - dasturining muhim qismlaridan biri bolalar uchun erkin ijodiy muhitning yaratilganligidadir. Bu metodlarning eng muhim omili tajriba o'tkazishga, modellar tuzishga mustaqil ravishta loyihalar yaratish, o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirishga va o'zining maqsadga erishishiga yordamchi bo'ladi.

TAJRIBA-SINOV NATIJALARI VA TAHLILI

Tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarning intellektual faolligini oshiradi, ijodiy yondashuvni kuchaytiradi va ta'lim jarayonining umumiy samaradorligini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini

rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish pedagogik jihatdan muhim va samarali hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Pedagoglar uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning komil shaxs bo'lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, bolani tarbiyalashda, rivojlantirish jarayonida ayniqsa, intellektual va ijodiy qobiliyatlarni ko'rsatishda faoliyat muhim rol egallaydi. Shuning uchun ta'lim tashkilotlarda bolaning hayoti va undagi jarayonlar turli- tuman faoliyatlar bilan shug'ullana oladigan qilib tashkil etilishi kerak. Bunda albatta bolalarning yangi bilim malakalarning dunyoga, tabiatga, mehnatga, odamlarga va o'ziga bo'lgan munosabatlariga intellekti va ijodkorlik qobiliyatlarining yuzaga chiqishiga, rivojlanishiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullaeva N. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent, 2021.
2. Xodjayev B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent, 2020.
3. UNESCO. Early Childhood Care and Education. – Paris, 2019.
4. UNICEF. Early Learning and Development. – New York, 2020.
5. Salomov R. Pedagogik kompetensiya asoslari. – Toshkent, 2022.